



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№4 (2)**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
<b>Shermatov Sherzod Xotamovich</b> RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI .....	20
<b>Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich</b> TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI .....	26
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li</b> KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
<b>Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna</b> YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI .....	38
<b>Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek</b> ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
<b>Буранова Лола Вахобовна</b> ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ .....	54
<b>Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли</b> ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
<b>Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna</b> XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA .....	64
<b>Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna</b> QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	
<b>Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li</b> INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI .....	73
<b>Abdullo Sohobov</b> O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI .....	84
<b>Mamanazarov Oybek Shomurodovich</b> KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	91
<b>Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li</b> BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
<b>Dadajonova Madina Ravshan qizi</b> O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI .....	100
<b>Ochilov Farhod Malikovich</b> O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA).....	106
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
<b>Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi</b> IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
<b>Olokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi</b> MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
<b>Karimova Iroda Abdusattarovna</b> KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
<b>Qurbonov Abror Abdullayevich</b> GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
<b>Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li</b> AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
<b>Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi</b> ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
<b>Джураева Гузаль Шавкатовна</b> BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
<b>Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi</b> RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
<b>Marqayev Xurshid Aliqulovich</b> THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
<b>Zafar Qodirov Abdivaxobovich</b> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
<b>Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich</b> <b>Shukurova Nilufar Qahramonova</b> IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b> NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
<b>Aliyev Arslon Salom o'g'li</b> A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
<b>Wang Biao</b> USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
<b>Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna</b> INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
<b>Aliqulov Abbas Baxtiyor o'g'li</b> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
<b>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</b>	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
<b>Elomonov Dadaxon Ozodullayevich</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....	213
<b>L.S. Azimova</b>	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING .....	218
<b>Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li</b>	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI .....	223
<b>Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li</b>	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI .....	227
<b>Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna</b>	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH .....	232
<b>Nurmanov Sherzod Xujayarovich</b>	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI .....	237
<b>Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li</b>	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI .....	242
<b>Raximov Azizbek Saliyevich</b>	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY Tajribasi: AQSH MISOLIDA.....	246
<b>Kurbanov Baxodir Negmatullayevich</b>	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI .....	250
<b>Ashurova Shaxnoza Almasovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	257
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	262
<b>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</b>	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI.....	267
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQISHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA .....	278
<b>Aqsungul Usenova Tenel qizi, Qoraqalpoq davlat universiteti</b>	
<b>Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich</b>	
O'ZBEKISTONDA QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	283
<b>Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi</b>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VA KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH.....	289
<b>Bozorova Madina Raxmat qizi</b>	
IMPROVING SERVICE QUALITY MONITORING IN SERVICE ENTERPRISES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES .....	294
<b>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	299
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	



O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI .....	304
<b>Abdusalomov Ozodbek Baxtiyor o'g'li</b> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA .....	311
<b>Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna</b> O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI OSHIRISHDA AKT RIVOJLANISHINING O'RNI.....	315
<b>Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li</b> QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	322
<b>Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li</b> INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI .....	326
<b>Abdullo Sohibov</b> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	331
<b>Davronov Sanjar Ziyotovich</b> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	336
<b>Ashrapova Noilaxon Niyazxanovna</b> ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	340
<b>Ochilov Baxtiyor Muminjonovich</b> THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING.....	346
<b>Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin ugli</b> SIRKULYAR IQTISODIYOTGA O'TISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR .....	351
<b>Astanakulov Olim Tashtemirovich</b> <b>Muxammad Id Balbaa (Muhammad Eid Balbaa)</b> <b>Habibe Elif Kutlugun (Habibe Elif Kutlugun)</b> GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI FONIDA EKOLOGIK SIYOSAT VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	357
<b>Xamzayev Abdushukur Xudoyqulovich</b>	



# GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI FONIDA EKOLOGIK SIYOSAT VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

**Xamzayev Abdushukur Xudoyqulovich**  
Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ekologik xavfsizlik, iqlim o'zgarishi va barqaror rivojlanish masalalari tahlil qilingan. Global miqyosda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning kamayishi hamda oziq-ovqat va energiya xavfsizligiga tahdidlar kontekstida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ekologik islohotlar yoritilgan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari va ekologik infratuzilmani takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Maqolada ekologik barqarorlikni ta'minlashda huquqiy asoslarning o'rni, jumladan, yangilanayotgan Konstitutsiyada ekologik huquqlarning mustahkamlanishi ham tahlil etilgan. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash kompleks yondashuv — ilmiy asos, davlat siyosati va huquqiy mexanizmlar uyg'unligi orqali amalga oshirilishi zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, qayta tiklanuvchi energiya, yashil energiya, ko'kalamzorlashtirish, ekologik muvozanat, oziq-ovqat xavfsizligi, tabiiy resurslar, Konstitutsiya, ekologik huquqlar, iqlim siyosati, atrof-muhit muhofazasi, yashil iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы экологической безопасности, изменения климата и устойчивого развития. Освещаются проводимые в стране экологические реформы в контексте глобальных климатических изменений, сокращения природных ресурсов, а также угроз продовольственной и энергетической безопасности. В частности, рассматриваются направления развития возобновляемых источников энергии, озеленения и совершенствования экологической инфраструктуры. В статье также анализируется роль правовых основ в обеспечении экологической устойчивости, в том числе укрепление экологических прав в обновляемой Конституции. Обосновано, что обеспечение экологической безопасности требует комплексного подхода — сочетания научной базы, государственной политики и правовых механизмов.

Ключевые слова: экологическая безопасность, устойчивое развитие, изменение климата, возобновляемая энергия, «зелёная» энергия, озеленение, экологическое равновесие, продовольственная безопасность, природные ресурсы, Конституция, экологические права, климатическая политика, охрана окружающей среды, «зелёная» экономика.

**Abstract:** This article analyzes issues of environmental security, climate change and sustainable development. It highlights ongoing environmental reforms in the country in the context of global climate change, the depletion of natural resources, and threats to food and energy security. In particular, it examines the development of renewable energy sources, greening initiatives, and the improvement of environmental infrastructure. The article also discusses the role of legal frameworks in ensuring environmental sustainability, including the strengthening of environmental rights in the updated Constitution. It is substantiated that ensuring environmental security requires a comprehensive approach combining scientific foundations, state policy, and legal mechanisms.

**Keywords:** environmental security, sustainable development, climate change, renewable energy, green energy, afforestation and greening, ecological balance, food security, natural resources, Constitution, environmental rights, climate policy, environmental protection, green economy.

## KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jamiyat hayotining barcha jabhalarida chuqur va tizimli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonlarni muayyan ma'noda tabiiy "yangilanish" yoki regeneratsiya jarayoniga qiyoslash mumkin, chunki ular iqtisodiy va siyosiy sohalar bilan birga, jamiyatning ma'naviy muhiti, ijtimoiy munosabatlar hamda ekologik madaniyat rivojini ham qamrab olmoqda.

Mazkur islohotlarning markazida inson manfaatlariga yo'naltirilgan ochiq va pragmatik siyosat turibdi. Davlat boshqaruvida yangi yondashuvlarning joriy etilishi, xalq bilan ochiq muloqot tizimining shakllanishi, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarining mustahkamlanishi barqaror rivojlanish uchun zarur bo'lgan institutsional



asoslarni yaratmoqda. Ayniqsa, ekologik muammolarga bo'lgan e'tiborning ortib borayotgani va ularning tizimli hal etilishi mamlakat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishiga moslashish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik muvozanatni saqlash masalalari kompleks yondashuv asosida hal etilmoqda. Xususan, Orolbo'yi hududini tiklash, keng ko'lamli ko'kalamzorlashtirish ishlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish kabi tashabbuslar nafaqat milliy, balki mintaqaviy ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ekologik xavfsizlik masalasi alohida bir davlat doirasidan chiqib, global va mintaqaviy muammo sifatida qaralayotganini ko'rsatadi.

Bosh Qomusimiz muqaddimasida "Mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib" qabul qilingani ta'kidlab o'tilgan<sup>1</sup>. Bu shu davlatda yashayotgan har bir fuqaroning osoyishtaligi va farovonligi uchun xizmat qiladigan muhim omil hisoblanadi.

Konstitutsiyamizda xalqimizning tinch va osuda hayot kechirishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan normalar qatorida 49-moddasida fuqarolarning ekologik huquqlari qat'iy belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, "Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi"<sup>2</sup>.

Yangilangan Konstitutsiyada ekologik masalalarga alohida urg'u berilib, fuqarolarning qulay atrof-muhitda yashash huquqi, ekologik axborotga ega bo'lish imkoniyati hamda tabiatni asrash borasidagi majburiyatlari mustahkamlab qo'yildi. Bu esa ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi. Ayniqsa, so'nggi davrda, jumladan, 2026-yilning mart oyida qabul qilingan Prezident Farmoni va qarorlari ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu hujjatlar ekologik siyosatni izchil rivojlantirish va uni amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalarini ilmiy asosda o'rganish, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish yo'llarini aniqlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Global iqlim o'zgarishi sharoitida ekologik siyosat va barqaror rivojlanish strategiyalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nicholas Stern 2006-yilda iqlim o'zgarishini "bozor muvaffaqiyatsizligining eng yirik ko'rinishlaridan biri" sifatida baholab, ekologik siyosatda kechiktirilgan choralar kelajakda ancha katta iqtisodiy xarajatlarga olib kelishini asoslagan. Uning yondashuvida barqaror rivojlanish faqat ekologik muhofaza emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida talqin etiladi.

William Nordhaus tadqiqotlarida iqlim siyosatini iqtisodiy modellashtirish orqali baholash muhim o'rin tutadi. U ishlab chiqqan integratsiyalashgan baholash modellari iqtisodiy o'sish, karbonat angidrid chiqindilari va iqlim xavflari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Nordhaus yondashuvi ekologik siyosatda uglerod narxlash mexanizmlari, soliqlar va emissiya savdosi tizimlarining ilmiy asoslanishiga katta hissa qo'shgan.

Elinor Ostrom 2009-yilda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda faqat markazlashgan global kelishuvlarga tayanish yetarli emasligini ta'kidlagan. Uning politsentrik boshqaruv konsepsiyasiga ko'ra, ekologik siyosat milliy hukumatlar, mahalliy boshqaruv organlari, biznes subyektlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi ko'p darajali hamkorlik asosida samarali ishlaydi. Bu yondashuv ayniqsa barqaror rivojlanish strategiyalarida mahalliy tashabbuslar, tajriba almashinuvi va institutsional moslashuvchanlikni kuchaytiradi.

Johan Rockström va hamkorlari "planetary boundaries" konsepsiyasi orqali inson faoliyati Yer tizimining ekologik chegaralaridan chiqib ketmasligi zarurligini ilmiy jihatdan asoslagan. Ushbu yondashuv ekologik siyosatni faqat ifloslanishni kamaytirish chorasi sifatida emas, balki biosfera barqarorligini saqlashga qaratilgan kompleks strategiya sifatida ko'rishga imkon beradi. Kate Raworth esa "Doughnut Economics" konsepsiyasida ijtimoiy ehtiyojlar va ekologik chegaralar o'rtasidagi muvozanatni barqaror rivojlanishning asosiy sharti sifatida talqin qiladi.

Jeffrey Sachs tadqiqotlarida barqaror rivojlanish iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik va ekologik xavfsizlikni uyg'unlashtiruvchi kompleks jarayon sifatida yoritiladi. Uning fikricha, iqlim siyosati energetika tizimini transformatsiya qilish, yashil investitsiyalarni kengaytirish, kambag'allikni qisqartirish va institutsional boshqaruvni kuchaytirish bilan uzviy bog'liq. Shu jihatdan ekologik siyosat alohida sektor siyosati emas, balki milliy rivojlanish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

1 <https://lex.uz/docs/-6445145>

2 <https://lex.uz/docs/-6445145>



IPCC 2023-yilgi sintez hisobotida iqlim o'zgarishining keng ko'lamlı ta'sirlari, moslashuv choralari va emis-siyalarnı kamaytirish zarurati umumlashtirilgan. Hisobotda barqaror rivojlanish bilan iqlim siyosatini integratsi-yalash, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, iqlimga mos infratuzilma va ijtimoiy adolat tamoyil-larini uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, global iqlim o'zgarishi sharoitida ekologik siyosat faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U iqtisodiy rejalashtirish, energetika xavfsizligi, moli-yaviy rag'batlar, institutsional boshqaruv, ijtimoiy adolat va xalqaro hamkorlikni qamrab oluvchi kompleks strate-gik tizim sifatida shakllanmoqda. Shu sababli barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda Sternning iqtisodiy xavf yondashuvi, Nordhausning modellashtirish konsepsiyasi, Ostromning ko'p darajali boshqaruv nazariyasi, Rockströmning ekologik chegaralar g'oyasi va Sachsning integratsiyalashgan rivojlanish qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro tashkilotlar hisobotlari (IPCC, World Bank, UN) hamda ilmiy maqolalardan desk-tahlil usuli orqali yig'ildi. Statistika ma'lumotlar qiyosiy va trend tahlili yordamida o'rganildi. Shuningdek, ekologik siyosat samaradorligi korelyatsion tahlil orqali baholandi va natijalar mantiqiy umumlashtirish asosida interpretatsiya qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ham tasdiqlaydiki, yashil energiya manbalariga o'tish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanuvchi manbalar atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar hajmini kamaytirish, ekologik muvozanatni tiklash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba yashil energiyaga investitsiya kiritish nafaqat ekologik, balki uzoq mud-datli iqtisodiy foyda ham berishini yaqqol tasdiqlaydi. Bundan tashqari, yashil hududlarni kengaytirish, o'rmon-zorlarni ko'paytirish va shahar ekologik infratuzilmasini rivojlantirish atmosfera havosi sifatini yaxshilash, issiq-xona effektini kamaytirish hamda inson salomatligini muhofaza qilishda muhim o'rin tutadi. Ilmiy hisob-kitoblar yashil maydonlar va daraxtlar sonining ortishi ekologik muvozanatni saqlashda tabiiy "filtr" vazifasini bajarishini ko'rsatadi.

Ekologik xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi va energiya barqarorligi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan yagona tizimni tashkil etadi. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi esa davlat siyo-sati, ilmiy yondashuv va jamiyatning ekologik madaniyati uyg'unligiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun kompleks yondashuv, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda aholining ekologik ongini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Hozirgi davrda iqlim o'zgarishi global miqyosdagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Atmosferada issiqxona gazlarining ortishi, global haroratning ko'tarilishi, suv resurslarining kama-yishi hamda tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanishi jahon miqyosida jiddiy ekologik xavflarni yuzaga keltirmoqda. Xalqaro tashkilotlar prognozlariga ko'ra, 2050-yilga borib iqlim o'zgarishi oqibatida 200 milliondan ortiq<sup>3</sup> aholi ichki migratsiyaga uchrashi mumkin bo'lib, bu jarayon Markaziy Osiyo mintaqasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishlari so'nggi o'n yilliklarda yanada keskinlashgan. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 50–60 yil davomida muzliklar maydoni qariyb 30 foizga<sup>4</sup> qisqargan bo'lib, bu daryo tizimlari va suv balansiga bevosita ta'sir etmoqda. O'rtacha yillik haroratning 1,5 °C ga oshgani, asr oxiriga borib esa 2 °C dan 5,7 °C gacha yetishi mumkinligi ilmiy prognozlarda qayd etilgan.<sup>5</sup>

Ushbu o'zgarishlar O'zbekiston uchun ham muhim ekologik va iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga kelib mamlakat aholisining kamida 8 million nafari iqlim xavfi yuqori bo'lgan hududlarda yashashi mumkin. Shuningdek, moslashuv choralarining yetarli darajada amalga oshirilmasligi 2050-yilga borib milliy iqtisodiyot hajmining taxminan 10 foizga qisqarishiga olib kelishi ehtimoli bor.

Shu sababli mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, har yili o'rtacha 200 million tup daraxt va buta ekish orqali yashil hududlarni kengayti-rish rejalashtirilgan bo'lib, bu atmosfera havosi sifatini yaxshilash hamda cho'llanish jarayonlarini sekinlashtir-ishga xizmat qiladi.

Hududlar kesimida ham yirik ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda. Qoraqalpog'istonda 1 million gektar, Navoiy va Buxoro viloyatlarida 300 ming gektardan, Xorazmda esa 85 ming gektar maydonda yangi o'rmonzor-lar barpo etish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, ayrim hududlarda "yashil devor" konsepsiyasi asosida ekologik himoya zonalarini shakllantirilmoqda.

3 World Bank. Groundswell Part II: Acting on Internal Climate Migration, 2021.

4 UNESCO. World Water Development Report, 2022.

5 IPCC. Sixth Assessment Report (AR6), 2022.



Poytaxt hududida barpo etilayotgan Milliy dendrologiya bog'i ham ekologik muvozanatni ta'minlashga qaratilgan muhim loyihalardan biridir. Dastlab 65 gektar maydonda 50 mingta daraxt va 100 mingta buta ekish ishlari amalga oshiriladi. Kelgusida ushbu hudud 108 gektargacha kengaytirilishi rejalashtirilgan bo'lib, u yiliga o'rtacha 28 tonnagacha chang va zararli zarrachalarni yutuvchi tabiiy filtr vazifasini bajarishi kutilmoqda.

Ilmiy hisob-kitoblarga ko'ra, bir inson yiliga o'rtacha 700–740 kg kislorod iste'mol qiladi. 10–12 metr balandlikdagi bitta daraxt esa yiliga taxminan 100 kg kislorod ishlab chiqaradi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida har bir inson uchun kamida 7–8 tup daraxt zarurligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Bu esa yashil hududlarni kengaytirish ekologik barqarorlikning muhim sharti ekanini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda global ekologik muammolar fonida oziq-ovqat xavfsizligi ham dolzarb masalaga aylangan. BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda dunyo aholisining 815 million nafari oziq-ovqat tanqisligidan aziyat chekmokda va 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 2 milliardga yetishi mumkin.<sup>6</sup>

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida genetik modifikatsiyalangan mahsulotlar ulushi ortib bormoqda. Jumladan, soyaning 80 foizi, makkajo'xorining 70 foizi, kartoshkaning 60–70 foizi, guruchning 50 foizi hamda lavlagining 30 foizi GM mahsulotlariga to'g'ri keladi. Tadqiqotlarda ayrim mamlakatlarda GM mahsulotlar ulushi yuqori bo'lishi bilan allergik kasalliklar ko'rsatkichlari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi qayd etilgan bo'lsa-da, bu borada ilmiy munozaralar hanuz davom etmoqda.

Ekologik barqarorlikning yana bir muhim omili tuproq unumdorligi va tabiiy resurslarning holatidir. So'nggi yillarda tuproq degradatsiyasi, sho'rlanish va suv tanqisligi kuchayib, oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita tahdid solmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil energiyaga o'tish jarayoni ekologik muammolarni yumshatishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, quyosh energiyasi, atmosferaga zararli gazlar chiqishini kamaytirish va ekologik muvozanatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda bu yo'nalishda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son<sup>7</sup> qarori qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirishga qaratilgan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil energetikaga investitsiya qisqa muddatda sezilarli natija beradi. Masalan, Vetnamda 2017-yilda deyarli mavjud bo'lmagan quyosh energiyasi 2019-yilga kelib 5 GVt darajaga yetgan. 2020-yilda esa mamlakat elektr energiyasining 25 foizi quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan. 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 17,6 GVtga yetib, atmosferaga minglab tonna CO<sub>2</sub> chiqishi oldi olingan. Indoneziyada 2015-yilda quyosh energiyasi tannarxi 25 sent bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 6 sentgacha pasaygan. Hindistonda esa 2012-yilda deyarli yo'q bo'lgan quyosh energetikasi 2022-yilga kelib 14 GVt quvvatga ega loyihalar bilan kengaygan. Germaniya tajribasi ham muhim: 2021-yilda elektr energiyasining 42 foizi, 2022-yilda esa 47 foizi qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga ishlab chiqarilgan. Aholining 92 foizi yashil energiyaga o'tishni qo'llab-quvvatlagan.

Umuman olganda, mazkur global tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, yashil energiyaga o'tish ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan birga iqtisodiy samaradorlikni oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shu sababli O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va quyosh energetikasini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi globallashuv jarayonida ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda kuchayib bormoqda. Atmosfera tarkibidagi is-siqxona gazlarining ortishi, muzliklarning tez erishi va tabiiy ofatlarning ko'payishi nafaqat tabiat muvozanatiga, balki iqtisodiyot va jamiyat barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, aholining tez o'sishi va oziq-ovqatga bo'lgan talabning ortishi sharoitida qishloq xo'jaligi tizimlari ham yangi xavf va bosimlarga duch kelmoqda.

Bunday sharoitda ekologik barqarorlikni ta'minlash faqat tabiatni muhofaza qilish bilangina cheklanib qolmay, balki energiya siyosati, ishlab chiqarish va oziq-ovqat xavfsizligi bilan uyg'un holda olib borilishi zarur. Yashil energiya manbalarini keng joriy etish, qayta tiklanuvchi resurslardan samarali foydalanish va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish bu yo'nalishdagi eng muhim omillardan biridir. Chunki energiya tizimidagi o'zgarishlar bevosita atmosferaga chiqadigan zararli chiqindilar miqdorini kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bunday keng ko'lamlilik ekologik va ijtimoiy masalalarning samarali yechimi faqat texnik yoki iqtisodiy chora-tadbirlar bilan cheklanmaydi. Ular davlatning strategik yondashuvi, huquqiy asoslari va uzoq muddatli rivojlanish tamoyillari bilan mustahkamlanishi lozim. Shu ma'noda, mamlakatda yan-

<sup>6</sup> FAO. State of Food Security and Nutrition in the World (SOFI), 2023.

<sup>7</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>



gilanayotgan Konstitutsiya ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini kafolatlash hamda barqaror rivojlanish yo'lini huquqiy jihatdan mustahkamlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, ekologik barqaror kelajakni ta'minlash uchun ilmiy asoslangan yondashuv, innovatsion texnologiyalar va mustahkam huquqiy tizim uyg'unligi zarurdir. Ana shunday kompleks yondashuvgina jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlab, kelajak avlodlar uchun sog'lom va barqaror yashash muhitini yaratishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – Toshkent, 2023. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>
3. United Nations Environment Programme (UNEP). Emissions Gap Report 2023. – Nairobi: UNEP, 2023.
4. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). Climate Change 2021–2023: Sixth Assessment Report. – Geneva: IPCC, 2023.
5. World Bank. Climate Change Knowledge Portal: Uzbekistan Country Profile. – Washington, DC: World Bank, 2023.
6. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2023/2024. – New York: UNDP, 2024.
7. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). The State of Food Security and Nutrition in the World 2023. – Rome: FAO, 2023.
8. International Energy Agency (IEA). Renewables 2023. – Paris: IEA, 2023.
9. Asian Development Bank (ADB). Climate Change in Central and West Asia. – Manila: ADB, 2022.
10. O'zbekiston Milliy universiteti. Ekologiya va barqaror rivojlanish bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2022.
11. Toshkent davlat agrar universiteti. Qishloq xo'jaligi va ekologik muammolar bo'yicha ilmiy ishlanmalar. – Toshkent, 2023.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4 (2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>